

Mavzu: Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari

- ***Ajiniyoz nomidagi
NDPI ning
“Boshlang’ich
ta’lim” fakulteti
3“V”- kurs talabasi
Karimboyeva Dildor***



*Reja:

- * *Tarbiya haqida ma'lumot.*
- * *Buyuk allomalarimizning tarbiya haqidagi qarashlari.*
- * *Komil inson tarbiyasi - Sharq mutafakkirlari talqinida.*





Kelajakka
poydevor - bugungi
kunda komil inson
shaxsini
tarbiyalashdir.

Islom Karimov.

Tarbiya - bu insonni ijtimoiy tajribalar bilan, uning barcha shakllarida - bilim, his-hayajon, estetika, odob-axloq qoidalarini bilan tanishtirish va individning ichki o`ziga hos jihatlarni, imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish bo`yicha faoliyat hisoblanadi.






Tarbiya – inson hayotida o'z-o'zini idora qilish me`yolarini, boshqalar bilan munosabatda bo'lish madaniyatini, halol ishlab, to'g'ri hayot kechirish mezonlarini o'rgatadi.

Bizning Turon zamin xalqlari tarbiya sohasida boy an'analarga ega. Tarbiyaga oid dastlabki fikrlar "Avesto" kitobida , qadimgi bitiklarda va Beruniy, Farobiy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur , Navoiy , Bobur , Abdulla Avloniy singari buyuk allomalarimizning asarlarida jamlangan.






**Tarbiya -
bu yaxshi
xulq-
atvorni
tashkil
etadi. Dara
xtning
moyasi*

Forobiy ham o'zining «Fozil odamlar shahri», «Davlat arbobi o'gitlari» kabi asarlarda ijtimoiy muammolarga to'xtalar ekan, inson va uning tarbiyasi muammosiga alohida e'tibor qaratadi. Uning falsafiy tizimida bu muammo eng muhim va murakkab sanalgan. Forobiy fikricha, inson komil bo'lishi uchun tafakkuri yuksak darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Tafakkur shu qadar bo'lishi kerakki, u insonga bir nimani xabar qilganda, inson shuurida ham, ongida ham o'sha narsa abadiy muhrlanib qolishi lozim.




*Beruniy bilim olishni
axloqiy tarbiya bilan
bog'laydi. Zero, insonda
komillikning muhim mezonini
yuksak axloqlilikdir.*



*Beruniy fikricha
axloqiylik yaxshilik bilan
yomonlik o'rtasida
kurash natijasida
nomoyon bo'ladi va
tarkib topadi, yaxshilik
va yomonlik insonning
xulq atvorini
belgilaydigan mezondir.*






Abu Ali Ibn Sino insonning kamolga etishida uning tarbiyaviy kamolati muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik kamtarlik,sevgi,muhabbat,mo'ta dillik, aqillilik, ehtiyotkorlik, qatiyatlilik,sadoqat,intilish,uyatc hanlik,ijodkorlik, va boshqalarni kiritadi.




** Ibn Sino bolalarni hayotga tayyorlash uchun ularga hunar o'rgatish kerak deb ko'rsatadi:*




** “Inson hunarni puxta o'rganishi shart. chunki hunar kelajakda ro'zg'or tebratish uchun asqotadi. oilada iqtisodiy tarbiya zamirida bolada mehnatsevarlikni shakllantirish yotadi. Bu jarayonda bola hisob-kitob qilishni ham o'rganadi, ishbilarmonlik va tashabbuskorlik xususiyatlariga ega bo'ladi”.*

* Yusuf Xos Hojib ijodining bosh masalalaridan biri –
komil insonni tarbiyalashdir. Adib o'z asarlarida eng
komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga jabob
bara oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa,
shu asosda u o'z tamoyillarini izchil bayon etadi.
“Qutadg'u bilig” (Saodatga eltuvchi yo'l) asari ta'lim va
tarbiya, ma'naviy kamolotning yo'l- yo'riqlarini, usullarini,
chora tadbirlarini o'zida mujassamlashtirgan, axloq va
odobga doir ma'naviy manbadir.






*Alisher Navoiy "Xamsa"sining xar
bir dostonida bukilmas iroda,
qattiyatlilik, itoat, insonparvarlik
tuyg'ulari, ijodiy xayolot, insonning
murakkab ichki kechinmalari
moxirona yoritilgan.*



Shuningdek, bu borada Mahmud Qoshg'ariy, Ulug'bek, Naqshbandiy, Ogahiy singari buyuk sharq mutafakkiklarining yoshlar tarbiyasiga, o'qituvchi, tarbiyachining jamiyatdagi o'rni, axloq- odob, fe'l- atvor, oilaviy hayot, kishilararo munosabatlarga doir qarashlari ularning asarlarida ravon va ixcham bayon etilganligini takidlash mumkin.



*O'zbek milliy pedagogi
Abdulla Avloniy axloqqa
quyidagicha ta`rif beradi:
“Alhosil, tarbiya biz
uchun yo hayot – yo
mamot, yo najot – yo
halokat, yo saodat – yo
falokat masalasidir”,
deb uqtiradi.*



*E'tiboringiz uchun
raxmat.*